

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BARQARORLIK REYTINGINI JORIY ETILISHI VA HUDUDLARDAGI TADBIRKORLIK MUHITIGA TA’SIRI

Nutfulloyev Tolib G‘olib o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Biznes boshqaruvi” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Email: t.nutfulloyev@tsue.uz

https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss3/677

Maqolada O‘zbekiston Respublikasida “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi”ni joriy etish jarayoni qanday kechganligi va shu kungacha qanday natijalarga erishilgani haqida so‘z boradi. Bundan tashqari, hududlar bo‘yicha tadbirkorlik sub‘yektlarining barqarorlik reytingi ko‘rsatkichlari hududlar kesimida tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot va xizmatlar hajmi bilan ekonometrik tahlil qilindi va o‘zaro bog‘liqlik jihatlari o‘rganildi. Ekonometrik tahlil natijalari bir qator testlar bilan tasdiqlandi. Olingan natijalar mualliflar tomonidan muhokama qilindi va tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingi, barqarorlik, reyting ko‘rsatkichi, iqtisodiyot, hududlar, yalpi hududiy mahsulot, tadbirkorlik subyektlari, raqamli platformalar, baholash mezonlari, raqobat.

ВНЕДРЕНИЕ РЕЙТИНГА УСТОЙЧИВОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА БИЗНЕС-СРЕДУ В РЕГИОНАХ

Нутфуллоев Толиб углы

Старший преподаватель кафедры «Управление бизнесом» Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация

В статье описывается процесс внедрения «Рейтинга устойчивости субъектов предпринимательства» в Республике Узбекистан и достигнутые на сегодняшний день результаты. Кроме того, проведен эконометрический анализ показателей рейтинга устойчивости субъектов хозяйствования по регионам с учетом объемов продукции и услуг, создаваемых субъектами хозяйствования по регионам, а также изучены аспекты их взаимосвязи. Результаты эконометрического анализа были подтверждены серией тестов. Полученные результаты были обсуждены и проанализированы авторами.

Ключевые слова: рейтинг устойчивости хозяйствующих субъектов, устойчивость, показатель рейтинга, экономика, регионы, валовой региональный продукт, хозяйствующие субъекты, цифровые платформы, критерии оценки, конкуренция.

INTRODUCTION OF THE SUSTAINABILITY RATING OF BUSINESS ENTITIES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND ITS IMPACT ON THE BUSINESS ENVIRONMENT IN THE REGIONS

Nutfulloyev Tolib

Senior Lecturer at the Department of Business Management, Tashkent State University of Economics

Abstract

The article describes the process of introducing the “Sustainability Rating of Business Entities” in the Republic of Uzbekistan and the results achieved to date. In addition, the indicators of the sustainability rating of business entities by region were econometrically analyzed with the volume of products and services created by business entities by region, and aspects of their interrelation were studied. The results of the econometric analysis were confirmed by a number of tests. The results obtained were discussed and analyzed by the authors.

Keywords: sustainability rating of business entities, sustainability, rating indicator, economy, regions, gross regional product, business entities, digital platforms, evaluation criteria, competition.

Kirish

Bugungi globalashuv va raqobat kuchayib borayotgan iqtisodiy sharoitda mamlakatlar milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik va oʻrta biznesni qoʻllab-quvvatlashga alohida eʼtibor qaratmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash, bandlikni oshirish va innovatsion yangiliklarni joriy etishda tadbirkorlik subyektlarining roli beqiyosdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ularning moliyaviy-iqtisodiy holatini obyektiv va tizimli baholash zarurati yuzaga keladi.

Zamonaviy islohotlar davrida mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yaxshilashning sabablaridan biri “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi”dir. Barqarorlik reytingi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-avgustda tadbirkorlar bilan boʻlib oʻtgan ochiq muloqoti doirasida ustuvor vazifalar ijrosini taʼminlaydigan, shuningdek, soliqlarni oʻz vaqtida toʻlayotgan va qonunchilik talablariga rioya etuvchi tadbirkorlik subʼyektlari uchun belgilangan.

Oʻzbekistonda joriy etilgan barqarorlik reytingi tizimi ushbu ehtiyojga bevosita javob boʻlib, tadbirkorlik subyektlarini raqamli indikatorlar orqali baholashga, moliyaviy intizom va samaradorlikni oshirishga, shuningdek, samarali davlat yordamini manzilli taqdim etishga xizmat qilmoqda. Bu esa nafaqat biznes subyektlarining ichki boshqaruvini takomillashtirish, balki ularning tashqi muhitdagi ishonchliligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Hududlar kesimida olib borilayotgan reyting natijalari esa mahalliy hokimiyatlar va siyosat yurituvchilarga tadbirkorlik muhitining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, ularga yoʻnaltirilgan siyosiy-ijtimoiy choralarni ishlab chiqish imkonini bermoqda. Reyting asosida tadbirkorlarni qoʻllab-quvvatlashda adolatli va shaffof yondashuvni yoʻlga qoʻyish orqali iqtisodiy islohotlarning samarasini oshirish mumkin.

Shuningdek, barqarorlik reytingining mavjudligi banklar, investorlar va boshqa moliyaviy institutlar uchun qaror qabul qilishda muhim maʼlumot manbai sifatida xizmat qiladi. Natijada, reyting faqat davlat siyosati uchun emas, balki bozor ishtirokchilari uchun ham muvozanatli va ishonchli baholash vositasiga aylanadi. Aynan shu jihatlar mazkur mavzuni Oʻzbekiston iqtisodiyoti kontekstida dolzarb, amaliy va ilmiy nuqtai nazardan muhim qilib qoʻymoqda.

Tadbirkorlarning takliflaridan kelib chiqib, tadbirkorlik uchun yaratilgan shart-sharoitlarni yanada yaxshilayapmiz. Yaqinda qabul qilingan qarorlar bilan biz 16 ta litsenziya va 34 turdagi hisobotlarni bekor qildik. Tadbirkorlar sinfi jamiyatning yetakchi kuchiga

aylanib, yoshlar ularga intilmoqda. Endilikda ushbu reyting orqali tadbirkorlar o'rtasida qonunga itoatkor, intizomli va faollarni rag'batlantirish zarur. Buni hayotga tatbiq etish va samaradorligini ta'minlashda Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jamoat kengashining o'rni katta bo'lishi kerak, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sub'yektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-39 qarori [1] hamda “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini belgilash tartibi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 55-son qarori [2] ga muvofiq barqarorlik reytingini tashkil etish bo'yicha qonunchilik bazasi yaratilgan [2].

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi va uning hududiy tadbirkorlik muhitiga ko'rsatgan ta'sirini o'rganishdan ko'zlangan asosiy maqsad — ushbu reyting tizimining iqtisodiy mohiyatini ochib berish, baholash mezonlari asosida uning samaradorligini aniqlash va uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

O'zbekiston Respublikasida barqarorlik reytingi tizimining shakllanish tarixini, normativ-huquqiy asoslarini tahlil qilish;

Reyting mezonlari va baholash indikatorlarini o'rganish, ularning amaliy qo'llanilishini tahlil qilish;

Reyting asosida tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilayotgan davlat yordami va imtiyozlarning samaradorligini aniqlash;

Hududlar kesimida tadbirkorlik muhitining holati va reyting natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni statistik va analitik usullarda o'rganish;

Reyting tizimining iqtisodiy islohotlar jarayonidagi o'rni va ta'sirini baholash;

Xalqaro tajribalarni solishtirish asosida O'zbekistondagi reyting tizimini takomillashtirish yo'nalishlarini asoslash;

Ilmiy tahlil asosida aniq xulosalar chiqarish va takliflar ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy barqarorligini baholash va tadbirkorlik subyektlari reytingini shakllantirishga oid qator olimlarning ilmiy ishlari o'rganilib, tahlil qilindi.

A.U. Burxonov, A.M. Qodirov, B. Usmonov, J.Z. Nizomiddinovlarning “Sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini baholash metodologiyasi” nomli maqolasida kimyo sanoati korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash muammolari yoritilgan. Mualliflar iqtisodiy barqarorlik tushunchasini makro va mikro muhitdagi omillar kontekstida tahlil qilgan. Tadqiqotda regression tahlil asosida tuzilgan integral differensial tenglamalar yordamida sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligi baholash uslubi ishlab chiqilgan. Bu yondashuv innovatsion xarakterga ega bo'lib, sanoat tarmoqlarida qo'llashga yo'naltirilgan.

A.A. Raximov o'zining "Barqarorlik va moliyaviy salohiyat" nomli tadqiqotida korxonalar barqarorligini moliyaviy ko'rsatkichlar asosida o'lchash mexanizmlarini ishlab chiqqan. U, xususan, to'lovga layoqatlilik, likvidlik, rentabellik kabi ko'rsatkichlarni kompleks baholash asosida reyting shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Raximovning yondashuvida moliyaviy tahlil vositalariga tayangan holda baholash modelini qo'llash taklif etiladi.

N.R. Jo'rayev o'z tadqiqotida kichik biznes subyektlarining barqaror faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni chuqur tahlil qilgan. Jumladan, kreditga kirish imkoniyati,

raqobatning keskinligi, infratuzilma yetishmovchiligi kabi muammolarni ko'rsatgan. U reyting baholash tizimlarining ushbu omillarni inobatga olgan holda ishlab chiqilishi zarurligini ilgari suradi.

A.M. Karimov tadqiqotida tadbirkorlik subyektlarining strategik barqarorligini ta'minlashda innovatsiyalarni joriy etish va menejment samaradorligini oshirish zarurligini asoslab bergan. U tadbirkorlik muhitiga innovatsion transformatsiyalarni moslashtirish orqali barqarorlik reytingini yaxshilash mumkinligini taklif etadi.

M. Sattorov reyting baholashda hududiy tafovutlarga e'tibor qaratgan. Uning fikricha, reyting tizimi barcha hududlarga bir xil mezon bilan yondashmasligi kerak, aksincha, hududlarning iqtisodiy salohiyati, infratuzilma darajasi, soliq yuklamasi kabi xususiyatlari inobatga olinishi lozim.

O.X. Xamidov reyting baholash tizimlarining shaffofligi va ishonchliligi muammosini ko'taradi. U mavjud reyting tizimlarida subyektivlik xavfi yuqoriligini, natijada ayrim tadbirkorlik subyektlari noto'g'ri baholanishi mumkinligini aytadi. Xamidov reytinglar mustaqil ekspertizalar asosida tuzilishi kerakligini ta'kidlaydi.

Yuqorida tahlil qilingan ilmiy ishlarda korxonalar va tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy barqarorligini baholash masalalari turli jihatlardan yoritilgan: moliyaviy tahlil, innovatsiyalar, hududiy farqlar, shaffoflik, ichki va tashqi omillar, va hokazo. Biroq, ushbu tadqiqotlarning aksariyati alohida korxonalar yoki sanoat tarmoqlariga qaratilgan bo'lib, barqarorlik reytingining tadbirkorlik muhitiga hududiy ta'siri masalasi yetarli darajada yoritilmagan.

Shu sababli, ushbu maqolada muallif sifatida asosiy e'tibor O'zbekiston Respublikasida barqarorlik reytingi joriy etilgandan so'ng hududlar kesimida tadbirkorlik faolligi, investitsion iqlim va davlat yordami mexanizmlariga ko'rsatgan ta'sirni chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Bu jihati bilan ushbu maqola mavjud ilmiy adabiyotlardan farq qiladi va ularni amaliy jihatdan to'ldiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish holati, reyting mezonlari va ularning hududlardagi tadbirkorlik muhitiga ta'sirini aniqlash maqsadida bir nechta empirik va statistik metodlar kompleks qo'llanildi.

Tadqiqotda foydalanilgan asosiy ma'lumot manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Savdo-sanoat palatasi, Soliq qo'mitasi, normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, rasmiy internet saytlardagi ochiq ma'lumotlar bazasi tanlab olindi. Bu manbalardan 2023–2024 yillar davomida to'plangan ko'rsatkichlar asosida tahlil olib borildi.

Tadqiqot muammosini chuqur yoritish va barqarorlik reytingining hududiy tadbirkorlik faoliyatiga real ta'sirini aniqlash uchun quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. Taqqoslash metodi – barqarorlik reytingining joriy etilishidan avvalgi va keyingi davrlar o'rtasida tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatkichlari (xodimlar soni, ish haqi fondi, soliq intizomi) solishtirildi.

2. Korrelatsion tahlil – STATA 15 dasturiy platformasi yordamida tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi (yuqori, o'rta, qoniqarli, past) va kichik biznes tomonidan yaratilgan sanoat mahsulotlari hajmi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik darajasi juftlik korrelyatsiya jadvali orqali baholandi.

3. Chiziqli regressiya modeli – Yalpi hududiy mahsulot hajmini natijaviy o‘zgaruvchi (Q3) sifatida belgilab, mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida reyting kategoriyalari kiritildi. Natijada determinatsiya koeffitsienti 0.499 deb topildi, bu esa reyting ko‘rsatkichlari hududiy ishlab chiqarish hajmiga 50 foiz atrofida ta’sir ko‘rsatishini anglatadi.

4. Model sifati va ishonchliligini tekshirish – Gauss-Markov shartlari asosida heteroskedastiklik, multikollinearlik va normal taqsimot testlari bajarildi.

5. Vizual analizlar – STATA dasturidagi grafik vizualizatsiyalar (scatter plot, fit line, residual plot) yordamida modeldagi har bir o‘zgaruvchining ta’siri vizual baholandi.

Mazkur metodologik yondashuv orqali maqola mavzusi bo‘yicha muhim xulosalar chiqarildi va barqarorlik reytingini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingiga ko‘plab ta’riflar berilgan va quyida biz ulardan bir nechtasini ko‘rishimiz mumkin:

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning barqarorlik reytingi - bu xo‘jalik yurituvchi subyektning barqarorligini baholash va reyting tizimi asosida uning toifasini aniqlash tizimi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning barqarorlik reytingi - bu korxonalar yoki xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning iqtisodiy barqarorligini, ya’ni ularning turli iqtisodiy, moliyaviy va operatsion sharoitlarda ishonchlilik darajasini baholash tizimi. Ushbu reytinglar tadbirkorlik faoliyatining uzluksizligi, barqarorligi va xavf-xatarlarga chidamliligini o‘lchash uchun ishlab chiqilgan.

Barqaror tadbirkorlik sub’ektlari tadbirkorlik faoliyatini qonun hujjatlari doirasida amalga oshirayotganda tadbirkorlik sub’ektlarining barqarorlik reytingida “B” va undan yuqori (keyingi o‘rinlarda “barqarorlik reytingi” deb yuritiladi) reytingiga ega bo‘lgan yuridik shaxslardir.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash ularning xo‘jalik jarayonlarini huquqiy tashkil etishiga qarab toifalarga bo‘linadi. Bunda:

- "AAA", "AA" va "A" toifalari - yuqori barqarorlik reytingi;
- "BBB", "BB" va "B" toifalari - o‘rtacha barqarorlik reytingi;
- "CCC", "CC" va "C" toifalari - qoniqarli barqarorlik reytingi;
- "D" toifasi pastroq barqarorlik ko‘rsatkichidir (1-jadval). [2]

1-jadval

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi shkalasi

Barqarorlik darajasi	Reyting ko‘rsatkichi	Baho
Yuqori	AAA	96-100 ballar
	AA	91-95 ballar
	A	86-90 ballar
O‘rtacha	BBB	76-85 ballar
	BB	66-75 ballar
	B	56-65 ballar
Qoniqarli	CCC	51-55 ballar
	CC	36-50 ballar
	C	26-35 ballar
Past	D	25 gacha ballar

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 55-son qarori,

O‘zbekistonda tadbirkorlarning barqarorlik reytingini hisoblashda 23 ta mezon, jumladan, 9 ta jarima va 4 ta rag‘batlantirish mezonlari qo‘llaniladi. Bunga kompaniyaning faoliyat davri, rentabellik darajasi, ko‘chmas mulk yoki yerning mavjudligi, xodimlarning ish haqi va boshqalar kiradi. Tadbirkorlik subyektlarini barqarorlik reytingi bo‘yicha guruhlarga bo‘lishdan asosiy maqsad yuqori baholangan tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash va boshqa tadbirkorlik subyektlarini o‘z reytingini oshirishga undashdan iborat.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi joriy etilgandan so‘ng ularning dastlabki reyting ko‘rsatkichlariga nisbatan sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi (2-jadval) [4]. Ularning barqarorlik darajasi ko‘rsatkichi ortib bormoqda va bu, o‘z navbatida, yuqori reyting indeksiga ega bo‘lgan korxonalar soni ham ortib bormoqda. Barqarorlik reytingi tadbirkorlarni soliq qonunchiligi tizimiga rioya qilgan holda biznes jarayonlarini tashkil etishda samarali usullardan foydalanishga va turli imtiyozlarga erishishga undaydi. Bu, albatta, yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish va tadbirkorlik subyektlarining o‘zlari faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

2-jadval

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi ko‘rsatkichlari (11.08.2024 y.)

Barqarorlik darajasi	Reyting ko‘rsatkichi	Subyektlar soni	Baho
Yuqori	AAA	1282 (+1170)	96-100 ballar
	AA	3078 (+2489)	91-95 ballar
	A	4430 (+3476)	86-90 ballar
O‘rtacha	BBB	19790 (+14023)	76-85 ballar
	BB	38748 (+23064)	66-75 ballar
	B	60361 (+29036)	56-65 ballar
Qoniqarli	CCC	37252 (+12843)	51-55 ballar
	CC	142212 (+36730)	36-50 ballar
	C	109593 (+910)	26-35 ballar
Past	D	139847 (-130250)	25 gacha ballar

Manba: Savdo-sanoat Palatasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘tgan davr mobaynida 130 mingdan ortiq tadbirkorlik subyekti barqarorlik reytingini oshirgan. Barqarorlik reytingining joriy etilishi natijasida mamlakatimizda yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va tadbirkorlik subyektlarining biznes jarayonlarini takomillashtirish rag‘batlantirilmoqda.

Jumladan, 2024-yilning 6 oyida 2023-yilning mos davriga nisbatan 107,5 mingta tadbirkorlik subyektida xodimlar soni 774,5 ming nafarga, 185,7 mingta sub’ektning ish haqi fondi 13,9 trillion so‘mga ko‘paydi. Shuningdek, 129 ming 100 ta korxonada 604 ming 400 nafar ishchi-xizmatchiga o‘tgan yilga nisbatan eng kam oylik ish haqi (MHTEKM) miqdoridan ortiq haq to‘langan. Soliq hisobotlarini o‘z vaqtida topshirgan tadbirkorlar soni 338 ming 900 nafarga, soliqlarni o‘z vaqtida to‘layotgan korxonalar soni 172 ming 200 nafarga yetdi. Joriy yilning 14 avgust holatiga ko‘ra, 542 ta murojaat bo‘yicha 317 ta AAA toifali tadbirkorlik subyektlariga qo‘shimcha qiymat solig‘i bo‘yicha ortiqcha to‘lovlar bir kun ichida qo‘shimcha tekshiruvlarsiz 513,8 mlrd.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (xizmatlari) hajmi, 2024-yil 3-chorak yakunlari va barqarorlik indeksi ko'rsatkichlari

Hududlar	2024 yilning III choragida kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (xizmatlari) hajmi (million so'm)	Yuqori	O'rtacha	Qoniqarli	Past
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6126,3	99	481	289	29
Andijon viloyati	17582,1	415	4470	14717	9702
Buxoro viloyati	11984,8	316	4634	19000	14985
Jizzax viloyati	5224,1	531	5904	16711	12474
Qashqadaryo viloyati	10149,1	225	3356	13127	9974
Navoi viloyati	9528,5	464	6522	22503	14937
Namangan viloyati	11127,3	237	3070	11438	9513
Samarqand viloyati	16253,1	424	5068	16233	11708
Surxandaryo viloyati	6024,8	861	9862	26165	16089
Sirdaryo viloyati	5421,5	294	4430	15625	10464
Toshkent viloyati	27098,3	161	2369	7614	6199
Farg'ona viloyati	18058,3	1007	10415	24792	14547
Xorazm viloyati	4698,8	750	7861	24832	16648
Toshkent shahri	48992,7	543	6270	14630	10869


Manba: Savdo-sanoat Palatasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Shundan avgust oyining o'tgan davridagi 55 ta murojaat asosida 52 tadbirkorlik sub'ektiga 53,4 milliard so'm qaytarildi. Mamlakatimizdagi 565 ming 56 tadbirkorlik subyekti tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi bo'yicha baholanadi. Aylanma soliq to'lovchilar soni 315 105 nafar, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar soni 249 951 nafarni tashkil etadi.

Hududlar tomonidan barqarorlik reytingi ko'rsatkichlari bo'yicha katta ishlar olib borilmoqda (3-jadval) [5].

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari ekonometrik usullar orqali tahlil qilindi. Bunda yuqori, o'rta, qoniqarli va pastroq reyting ko'rsatkichlari ta'sir etuvchi omil sifatida qabul qilinib, 2024-yil 3-chorak yakuni bo'yicha hududlarning yalpi mahsulot hajmi III chorak sifatida belgilanib, natijaviy omil sifatida belgilandi.

Natija omili (o'zgaruvchisi) sifatida STATA-da Q3 ga qarshi olti plot buyrug'idan foydalanib, quyidagi natijalarga erishildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Q3 o‘zgaruvchisining oltita grafigi

Manba: Savdo-sanoat Palatasi ma’lumotlari asosida STATA 15 dasturida muallif tomonidan tayyorlandi.

O‘zgaruvchilar o‘rtasidagi korrelyatsiya tahlili STATA 15 dasturida amalga oshirildi (4-jadval).

4-jadval

Juftlik korrelyatsiyalar

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)
(1) Q3	1.000				
(2) High	0.013	1.000			
(3) Medium	0.006	0.975	1.000		
(4) Satisfactory	-	0.847	0.926	1.000	
(5) Lower	-	0.736	0.838	0.969	1.000
	0.131				

Manba: Savdo-sanoat Palatasi ma’lumotlari asosida STATA 15 dasturida muallif tomonidan tayyorlandi.

Korrelyatsiya natijalariga ko‘ra, reyting ko‘rsatkichlari o‘rtasida korrelyatsiya mavjudligi aniqlandi. Biroq, reyting ko‘rsatkichlari bilan hududlarda kichik biznes subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot (xizmatlar) hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik mustahkam emasligini aniqladik. Omillar va o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikni to‘liqroq ifodalash uchun chizikli regressiya ko‘rsatkichlarini aniqladik (5-jadval). Regressiya ko‘rsatkichlariga ko‘ra, determinatsiya koeffitsienti modeldagi jami mustaqil o‘zgaruvchilarning qancha qismini natijaviy o‘zgaruvchini tashkil etishini tushuntiruvchi ko‘rsatkich bo‘lib, u 0,499 ga teng edi. Demak, mustaqil o‘zgaruvchilar, ya’ni reyting ko‘rsatkichlarining kichik biznes sub’ektlari tomonidan yaratilgan mahsulot (xizmatlar) hajmiga ta’siri 50 foizga yaqinni tashkil etadi.

Chiziqli regressiya korrelatsiya hisoblari


Q3	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
High	-74.773	65.265	-1.15	0.281	-	72.866	
Medium	18.325	8.762	2.09	0.066	-1.496	38.145	*
Satisfactor	-8.031	2.98	-2.70	0.025	-14.772	-1.29	*
Lower	5.965	3.371	1.77	0.111	-1.66	13.59	
Constant	13390.8 38	8203.7 1	1.63	0.137	-	31948.9 19	
					5167.24 3		
Mean dependent var		14162.1 21	SD dependent var			11896.735	
R-squared		0.499	Number of obs			14	
F-test		2.240	Prob > F			0.145	
Akaike crit. (AIC)		301.771	Bayesian crit. (BIC)			304.966	
*** p<.01, ** p<.05, * p<.1							

Manba: Savdo-sanoat Palatasi ma'lumotlari asosida STATA 15 dasturida muallif tomonidan tayyorlandi.

Chiziqli regressiya tenglamasi natijasi uchun quyidagi formula yaratildi:

$$Q3=13390-74.7773*Yuqori+18.325*O'rta-8.031*Qoniqarli+5.965*Past$$

Olingan natijalar Gauss-Markov testi bilan tekshirildi va quyidagi natijaga erishildi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Gauss-Markov testi.

Manba: Savdo-sanoat Palatasi ma'lumotlari asosida STATA 15 dasturida muallif tomonidan tayyorlandi.

Bir qator testlarni o‘tkazish natijasida mustaqil o‘zgaruvchilar va natija o‘zgaruvchisi o‘rtasidagi bog‘liqlik unchalik yuqori emasligini ko‘rsatdi.

Muhokama

Reyting tizimi joriy etilgandan so‘ng tadbirkorlik sub‘yektlarining yuqori reyting baholarini qo‘shimcha rag‘batlantirish vositalaridan foydalanish maqsadida quyidagi yo‘nalishlarda ijobiy natijalarga erishildi, jumladan:

■ Soliq to‘lovchilar tomonidan o‘z majburiyatlarini ixtiyoriy bajarish, ya‘ni soliq to‘lovlarini to‘lov topshiriqnomalari orqali to‘lash joriy yilning yanvar oyida 232 058 million so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, joriy yilning may oyida (yanvarga nisbatan 58 057 million so‘m oshgan) 290 115 million so‘mga yetdi;

■ Qonunda belgilangan muddatlarda elektron hisobvara-q-fakturalarni rasmiylashtirish joriy yil boshiga nisbatan 610 243 taga oshib, 1 389 033 tani tashkil etdi;

■ Soliq organlarining axborot tizimlaridan foydalangan holda o‘tkazilgan ko‘rikdan oldingi tahlillar (avtomobil kamerasi) natijasida 2024-yil 1-yanvar holatiga kamchiliklari bor korxonalar soni 219 458 tani, qo‘shimcha hisoblangan soliq summasi esa 3663,5 mlrd. 1 368,3 mlrd. so‘m (kamchiliklari bor korxonalar soni 50 638 taga kamaydi, soliq summasi 2 295,2 mlrd. so‘m);

■ Ish o‘rinlari tashkil etilishi va qonuniylashtirilishi hisobiga rasman band bo‘lgan fuqarolar soni yil boshidagi 5 million 351 ming nafardan (235 ming nafarga o‘sgan) 5 million 586 ming nafarga yetdi.

Xulosa va takliflar

Aytish mumkinki, tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingining joriy etilishi mamlakat uchun ham, tadbirkorlarning o‘zlari uchun ham foydali bo‘ldi. Chunki reytingning joriy etilishi natijasida to‘g‘ri va qonuniy faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub‘yektlari o‘z faoliyatini rag‘batlantirish sifatida bir qator imtiyozlarga ega bo‘ldi. Bu ularni kelgusida yanada faol bo‘lishga undaydi. Reytingi past bo‘lgan boshqa tadbirkorlik sub‘ektlari ham bunday imtiyozlardan foydalanish maqsadida o‘z reytingini oshirishga harakat qilmoqda. Ushbu ko‘rsatkichning joriy etilishi mamlakat uchun samarali bo‘ldi, bunga yashirin iqtisodiyotning qisqarishi va ish o‘rinlarining ko‘payishi misol bo‘la oladi. Qolaversa, davlat va tadbirkorlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchning oshishiga sabab bo‘ldi, deyish mumkin.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

- Kelgusida barqarorlik reytingi ko‘rsatkichlariga ko‘proq ko‘rsatkichlar kiritiladi;
- Nafaqat yuqori samarali korxonalar, balki o‘rta samarali korxonalar ham qator imtiyozlar berish;
- samaradorligi past bo‘lgan korxonalar bilan yakka tartibda ishlash, ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy yordam va tavsiyalar berish;
- Hududlar bo‘yicha reyting ko‘rsatkichlarini tahlil qilishda tadbirkorlik subyektlarining umumiy soniga va hududda infratuzilma bilan bog‘liq muammolarning yo‘qligiga e‘tibor qaratish;
- Reytingi past bo‘lgan korxonalar nisbatan keskin choralar va jarimalarni darhol qo‘llamang, chunki kelajakda ular ham o‘z ko‘rsatkichlarini yaxshilashi mumkin va bu ma‘lum vaqtni talab qiladi.

Tahlillar asosida ishlab chiqilgan takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada chuqur va tizimli baholash imkonini yaratadi, o‘rtacha

samaradorlikka ega korxonalarni ham rag‘batlantirish orqali ularning rivojlanish sur‘atini oshiradi. Shu bilan birga, past reytingli subyektlar bilan individual ishlash, ularni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy muvozanatga erishish mumkin bo‘ladi. Reyting bahosida hududiy farqlar va infratuzilma sharoitlarini hisobga olish esa iqtisodiy siyosatning manzilligini ta‘minlab, real holatga mos qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu yondashuvlar orqali respublikada sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va davlat bilan biznes o‘rtasida o‘zaro ishonchni mustahkamlashga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-39-son qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-6773342>
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 55-son qarori, <https://lex.uz/docs/-6785751#-6786367>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlik reytingini joriy etish bo‘yicha navbatdan tashqari majlisi matni, <https://president.uz/oz/lists/view/6969>
4. Tadbirkorlar barqarorligi reytingi – O‘zbekistonda biznesni rivojlantirishning yangi vektori – Soliq qo‘mitasi matbuot relizi, <https://gov.uz/oz/soliq/news/view/18834>
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi va Savdo-sanoat palatasi ma‘lumotlari.
6. Burxonov, A.U., Qodirov, A.M., Usmonov, B. va Nizomiddinov, J.Z. (2024), “Sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini baholash metodologiyasi”, Eshov, M.P., Abduraxmanova, G.K., Burxanov, A.U., Abdusalomova, N.B. va Ergasheva, S.T. (Tahr.) UFRS (Menejment bo‘yicha ilg‘or seriyalar, jild. 33B), Emerald Publishing Limited, Lids, 55-65-betlar bo‘yicha korporativ buxgalteriya hisobi va hisobotiga asoslangan xalqaro tadbirkorlikni rivojlantirish. <https://doi.org/10.1108/S1877-63612024000033B008>
7. Sativaldiyeva, D.A., Xaydarova, N.A. va Tursunaliev, I.U. (2024), “Xarajatlarni strategik boshqarishning ahamiyati va uni ishlab chiqarish tarmoqlarida tatbiq etish: O‘zbekistonda metall ishlab chiqaruvchi sanoat misollari”, Eshov, M.P., Abduraxmanova, G.K., Burxanov, A.U., Abdusalomova, N.B. va Ergasheva, S.T. (Tahr.) UFRS (Advanced Series in Management, Vol. 33B), Emerald Publishing Limited, Lids, 41-46-betlar bo‘yicha korporativ hisob va hisobotlarga asoslangan xalqaro tadbirkorlikni rivojlantirish. <https://doi.org/10.1108/S1877-63612024000033B006>
8. Sabirovna, Q.D., G‘olibo‘g‘li, N.T. (2023). Tadbirkorlik subyektlarini raqamli o‘zgartirishning asosiy jihatlari va afzalliklari. In: Koucheryavy, Y., Aziz, A. (tahrirlar) Internet of Things, Smart Spaces, and Next Generation Networks and Systems. NEW2AN 2022. 13772-jild. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-30258-9_30
9. Nutfulloev Tolib G‘olib o‘g‘li. (2023). BIZNES JARAYONLARINI TASHKIL TASHKILISHI: ASOSIY OMILLAR VA MODELLARNING HAM TAHLILI. Amerika fanlararo tadqiqot va rivojlanish jurnali, 22, 33–38. <https://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/822> dan olindi
10. Nutfulloev, T. (2024). KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUB'EKTLARIDA BIZNES JARAYONLARINI TO‘G‘RI BAHOLASH VA TASHKIL ETISHNING USLUBIY VA RAQAMLI ASOSLARI.

Iqtisodiyot va ta’lim, 25(1), 351–355.
<https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/1463> dan olindi

11. Qosimova Dilorom Sobirovna, & Nutfulloev Tolib G’olib o’g’li. (2024). O’ZBEKISTONDA KICHIK VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUYIBLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING HOZIRGI HOZIR VA MUAMMOLARINI TAHLLI VA YECHIMI. Jahon iqtisodiyoti va moliya byulleteni, 32, 132-137.
<https://scholarexpress.net/index.php/wefb/article/view/3947>

12. Nutfulloev, T. (2024). O’zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilishning hozirgi holati va muammolari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(3). <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/1382> dan olindi